

TURK TILLARDA O'SIMLIK NOMLARINING QO'LLANILISHI

Akramjonova Madina

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15727661>

Annotatsiya: o'simliklar olami inson hayoti uchun juda muhimdir. Qadim zamonlardan beri insonlar o'simliklardan nafaqat oziq-ovqat va dori-darmon sifatida foydalanib kelgan, balki ularning turli ehtiyojlar uchun ishlatilishi ham bu bog'liqlikni yana-da chuqurlashtirgan. O'simlik nomlarini yaratish nafaqat lingvistik jarayon, balki turli jamoalarning madaniy, ekologik va ijtimoiy qadriyatlarining ifodasidir. Ushbu maqolada, turkiy tillarda o'simlik nomlarining semantik va funksional ro'li, o'simliklarning foydalanish, ko'rinish va yashash muhitiga asoslanib tasniflanishi va nomlanishini yoritishga harakat qildik. Turkiy tillardagi o'simlik nomlarini boshqa til an'analari nisbatan solishtirish orqali, turkiy madaniyatlarning tabiatga bo'lgan qarashlarini qanday qilib til orqali shakllantirganligini ko'rsatadi. Tadqiqot o'simliklarning turkiy xalqlar madaniyati va tilidagi ahamiyatini, folklor, san'at va kundalik hayotdagi ramziy ma'nolarini yoritib beradi. Turli turkiy hududlarda o'simlik nomlari bo'yicha o'tkazilgan batafsil tahlil orqali, bu maqola til, madaniyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada chuqurroq tushunishga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: O'simlik nomlari, turkiy tillar, lingvistik tahlil, madaniy identitet, xalq tasnifi, ekologik semantika, o'simliklarning ramziy ma'nolari.

Abstract: The world of plants plays a crucial role in human life. Since ancient times, humans have utilized plants not only for food and medicine but also for various needs, reflecting the deep connection between humans and the natural world. The naming of plants is not just a linguistic exercise but a reflection of the cultural, environmental, and social values of different communities. This study explores the semantic and functional roles of plant names in Turkic languages, examining how plants are classified and named based on their utility, appearance, and habitat. By comparing Turkic plant nomenclature with other linguistic traditions, it reveals the unique ways in which Turkic cultures have shaped their understanding of nature through language. The research highlights the importance of plants in the cultural and linguistic identity of Turkic peoples, emphasizing their symbolic meanings in folklore, art, and daily life. Through a detailed analysis of plant names across various Turkic-speaking regions, this paper contributes to a deeper understanding of the interplay between language, culture, and the natural world.

Keywords: Plant names, Turkic languages, linguistic analysis, cultural identity, folk taxonomy, environmental semantics, plant symbolism.

Аннотация: Растительный мир очень важен для жизни человека. С древних времен люди использовали растения не только в качестве пищи и лекарств, но и их использование для различных нужд еще больше углубило эту связь. Создание названий растений является не только лингвистическим процессом, но и выражением культурных, экологических и социальных ценностей различных сообществ. В этой статье мы попытались пролить свет на семантическую и функциональную роль названий растений в тюркских языках, классификацию и наименование растений на основе их использования, внешнего вида и среды обитания. Сравнивая названия растений в тюркских языках с другими языковыми традициями, мы показываем, как тюркские культуры формировали свои взгляды на природу через язык. Исследование

проливает свет на важность растений в культуре и языке тюркских народов, их символические значения в фольклоре, искусстве и повседневной жизни. Благодаря подробному анализу названий растений в различных тюркских регионах эта статья способствует более глубокому пониманию взаимосвязи языка, культуры и природы.

Ключевые слова: Названия растений, тюркские языки, лингвистический анализ, культурная идентичность, народная классификация, экологическая семантика, символические значения растений.

O'simliklar olami inson hayoti va madaniyati uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Bu o'simliklarning roli faqat tabiiy ekotizimda emas, balki til, san'at, adabiyot, va kundalik hayotda ham o'z aksini topadi. O'simliklar o'zining o'sish jarayoni, tashqi ko'rinishi va o'simliklarga bo'lgan madaniy qarashlar orqali turli tillarda o'ziga xos nomlar bilan ifodalanadi. Turkiy tillarda o'simlik nomlari, o'zgarib turadigan madaniy kontekstlarga va hududlarga qarab turli vazifalarni bajaradi. O'simlik nomlari ham til boyligini kengaytirishga, ham turli jamiyatlarning tabiatga bo'lgan qarashlarini ifodalashga xizmat qiladi. Qadim zamonlardan beri insonlar o'simliklarni yig'ib, ularning mevalarini iste'mol qilgan, bargi, poyasi va ildizlaridan esa dori-darmon hamda turli ehtiyojlar uchun foydalanganlar. Inson hayoti o'simliklar olami bilan chambarchas bog'liqdir. Agar o'simliklar bo'lmaganida, na havo va na kislorod bo'lardi. O'simliklar hayotimizning tayanchi, oziq manbai va go'zallik manbaidir. O'simliklarning o'sishi tuproqqa, tuproqning asrab qolinishi esa o'simliklarga bog'liqdir. O'simliklar — iste'mol qilinadi, oshxona madaniyatining bir qismidir, yog'och sifatida ishlatiladi, uy jihozlari, uylar va asbob-uskunalar tayyorlanadi. O'simliklardan dorilar olinadi. O'simliklar — shu bilan birga hayvonlar uchun yem bo'lib, tabiiy hayotning ajralmas qismidir. Shu sababli o'simlik nomlari millatlar uchun so'z yasash jarayoniga qo'shgan hissi, so'z boyligi, til va madaniyatning muhim unsurlaridan hisoblanadi. Butun turkiy geografiyada son-sanoqsiz o'simliklar, daraxtlar, butalar, yovvoyi o'tlar, suvo'tlar, zamburug'lar va boshqalar mavjud. Bu o'simliklarning har bir turkiy hududda o'ziga xos nomlari bo'lishi mumkin. Shunday qilib, minglab o'simliklar o'n minglab mahalliy nomlar bilan ifodalanishi mumkin. Ko'plab o'simliklarning yozma tilda va botanika atamaları doirasida hammaga ma'lum bo'lgan umumiy turkcha nomi mavjud emas; mavjud bo'lgan taqdirda ham, ayrim hududlarda mashhur bo'lgan o'simlikning yozma tilidagi nomi ko'pchilikka noma'lum bo'lib qolmoqda. Shu sababli tarixiy va zamonaviy Turk dunyosidagi barcha o'simliklarni adabiy til shaklidagi nomlari, butun turkiy geografiyada ishlatiladigan mahalliy nomlari va lotincha ilmiy nomlari bilan birgalikda qamrab oluvchi katta lug'atga ehtiyoj bor.

Inson o'zi til kuchi, til qobiliyatining yonida, atrof-muhitiga, yashayotgan dunyosiga doir doimiy tajribalar orttirish va tanishlik qobiliyatiga ham ega. Inson ongida mavjud bo'lgan bir qobiliyat dunyodagi obyektlarni tasniflashni va umumiy tushunchalarga erishishni ta'minlaydi. Menekshaning (Viola), gulning (atirgul), sardunyaning umumiy xususiyatlariga asoslanib amalga oshirilgan tasniflash bizni "o'simlik" tushunchasiga; it, sigir, ot, tulki, quyon kabi jonzorlar esa "hayvon" tushunchasiga olib keladi (Aksan, Anlambilim, 40). Tabiatdagi mavjudotlar o'zaro o'xshashliklari tufayli tasniflanadi. Ekin, bo'yoq yoki o'z-o'zidan o'sadigan mavjudotlar ham "o'simlik" nomi bilan ifodalanadi.

Ekin ekish va hosil terib olish bo'yicha qadimdan tajriba va bilimga ega bo'lgan Turklar, "yer"ni dunyoni butunlay qamrab olgan, qo'l bilan ushlanadigan bir mavjudot sifatida

ko'rganlar (Ögel, 61, 93). Yer, o'simliklarga hayot baxsh etadigan, hosilning barakasini va unumdorligini oshiradigan bir kuchdir. O'simlikning o'sishi yerga, yerning saqlanishi esa o'simlikka bog'liqdir. Turk tilida, ekilmagan yerga "qir", "yoz" degan nom beriladi; ekilgan yerga esa "tarla" deyiladi (Ögel, 6). O'zbek tilida esa qo'riq yoki yaydoq yer deb nomlanadi. Bu tasnifning yaratilishida "o'simlik" tushunchasining asos qilib olinishi, bir tomondan bizning o'simlikka bo'lgan ahamiyatimizni ko'rsatib beradi, boshqa tomondan esa o'simlik muhim ekanini aks ettiradi. Ya'ni, tabiatni nomlashda, uning shakl tuzilmasidan ko'ra, ustidagi o'simliklar qamroviga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

O'simlik tushunchasi juda ko'p ma'nolarni ifodalaydi; o'simliklar ba'zan adabiyotning mavzusi, ba'zan rang va hid, ba'zan sevgan insoningiz uchun taqdim etiladigan eng go'zal sovg'a, ba'zan esa his-tuyg'ularimizni ifodalashning eng go'zal yo'li, ba'zan esa bir viloyat, kompaniya yoki jamoaning ramzidir. Rangi, hidi va ko'rinishi bilan atrofimizni butunlay qamrab olgan o'simliklarning tabiatga keltirgan foydalari va insonga taqdim etgan ne'matlari sanash bilan bitmaydi.

O'simliklar hayotimizning har bir sohasiga kirib kelgan mavjudotlardir. Har bir o'simlikning o'ziga xos qadri va ma'nosi bor. O'simliklar orasida "daraxt" me'morchiligimizning va butun hayotimizning eng mehribon yordamchisidir (Tanpınar, Beş Şehir, 188). Daraxt, bir madaniyat mahsulidir. Ajdodlarimiz daraxtni me'morchilik bilan, tabiatni esa sivilizatsiya bilan uyg'unlashtirganlar. Ular masjidning ichiga daraxt va suvni kiritganlar (Kaplan, 51). Tabiat, go'zalligini o'simliklardan oladi; chunki o'simliklar tabiatni go'zallashtiradi va ko'rganda ko'z quvonadigan holga keltiradi. Tabiatni she'riyatga, rasmlarga va turli san'at tarmoqlariga olib kiradigan aslida o'simliklardir.

Bir obyektning xususiyatlarini yanada aniqroq ifodalash uchun boshqa bir obyektidan foydalanish, boshqa tillarda bo'lgani kabi, turk tilida ham ko'p hollarda murojaat qilinadigan bir usuldir. Adabiy va yozma tilda misollar keltirish yoki taqqoslash qilayotganda o'simlik nomlarini juda tez-tez ishlatamiz. Masalan, go'zal hidni ta'riflash uchun "guldek", yumshoqlikni ta'kidlash uchun "paxtadek", noziklik va uzunlikni tasvirlash uchun esa "ildizlari baquvvat" so'zlaridan foydalanamiz. Bizning ifodalashlarimizda o'simlik nomlarini juda tez-tez ishlatishimiz, o'simlik nomlarining turkiy tillarda qanchalik muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

O'simliklarni nomlashda, ularning ishlatilishi, ko'rinishi va o'sadigan muhiti inobatga olinadi (Duran, 223-229). Har bir tilda, ayniqsa ularning shakllarini aks ettirish maqsadida tabiatdagi o'xshash obyektlar bilan bog'lanishga harakat qilinadi, va ko'plab o'simliklarga tabiatdagi obyektlar bilan o'xshashliklariga asoslanib nom berilgan. Masalan, gulning shakli arslon og'ziga juda o'xshagan Antrinum o'simligi turkchada "aslanağzi" deb ataladi, inglizcha (lions mouth), nemischa (löwenmaul) tarjimalari ham xuddi shunday. Gulning shakli sichqon qulog'iga o'xshagan Auricula muris o'simligi ham lotin tilida, yunon tilida, fors tilida, arab tilida, fransuz tilida ham "farekulağı" deb ataladi. Hayvon organlariga asoslangan, tabiatga bog'liq ifodalarning guvohligida quyidagi o'simlik nomlari boshqa tillardagi tarjimalari bilan ma'nan yaqin bo'lganlarini ko'rishimiz mumkin: "tavşankulağı, kuzukulağı, ayıkulağı, eşekkulağı; atkuyruğu, aslankuyruğu, sığırkuyruğu; kuşburnu, itburnu, buzağıburnu, öküzdili (sığırdili); keçisakalı, horozibiği, keçiboynuzu, aslanpençesi, devetabanı, öküzgözü, koyungözü, turnagagası" kabi. Shuningdek, ba'zi so'zlarda tabiatdagi obyektlardan o'simliklarga qarab nomlash mavjud: "boruçiçeği, kadifeçiçeği, çantaçiçeği, yıldızçiçeği, yüksükotu, kaşıkotu" (Aksan, Türkçenin Gücü, 60). Ushbu misollarni yanada ko'paytirish mumkin bo'lsa-da, ular turk

xalqi qanchalik o'ziga xos va jiddiy taqqoslashlar, nomlashlar yaratishda qanchalik mohir ekanini ochiq ko'rsatadi.

Insonlar, o'zlariga foydali bo'lganlardan boshlagan holda, yaqinlardan uzoqlarga qarab butun o'simlik dunyosini nomlashgan. Ushbu nomlashda foydali yondashuv asos qilib olingan. Tasniflash jarayonida har bir jamiyat o'z foydasini hisobga olgan. Xuddi shu o'simlik ba'zi jamiyatlarda tam hissi sifatida birinchi o'rinda turishi mumkin, boshqalarda esa umuman ishlatilmaydigan o'simlik bo'lib qolishi mumkin. Masalan, qizil chili (achchiq qalampir) Turkiyada juda ko'p iste'mol qilinadi, lekin Rossiyada deyarli iste'mol qilinmaydi. Jamiyatlarning iste'mol miqdorlari va madaniy tuzilmalarining o'simliklarni tasniflashda o'ynagan roli shu yerda o'z ahamiyatini ko'rsatadi.

Shuningdek, o'simliklarning zamonaviy tilda ishlatilishida madaniy ramzlar muhim rol o'ynaydi. O'simliklar ba'zan o'zgacha ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. Misol uchun, o'simliklar ko'pincha go'zallik va muqaddaslik ramzi sifatida ishlatiladi. "Gul" so'zi turkiy tillarda, xususan, o'zbek va turk tillarida, sevgini, go'zallikni ifodalashda keng qo'llaniladi. Shuningdek, o'simliklarning ma'naviy va madaniy ahamiyati ko'p hollarda simvolik ma'nolarga ega bo'ladi. O'simliklar, nafaqat tabiiy obyekt sifatida, balki xalqning tarixiy, madaniy va diniy tajribalari orqali shakllangan tushunchalar sifatida ham qo'llanadi.

Turkiy tillarda o'simlik nomlarining qo'llanilishi, nafaqat tabiatni tasniflash va madaniyatni ifodalash jarayonini, balki xalqning dunyoqarashini aks ettiradi. O'simlik nomlari, madaniy ramzlar sifatida, xalqning tabiatga bo'lgan qarashlarini, uning go'zalligini va ma'nolarini ifodalaydi Turkiy tillarda o'simlik nomlari, xalqning tabiatga bo'lgan aloqasi, tarixiy tajribalari va madaniy o'ziga xosliklarini aks ettiradi. Bu, o'z navbatida, turli jamiyatlar va tillar o'rtasida tabiatni qanday qabul qilish va tasniflash masalasini o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aksan, D. (2005). *Anlambilim*. İstanbul: Dergah Yayınları.
2. Ögel, B. (1985). *Türk Kültüründe Bitkiler ve Bitki İsimleri*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
3. Kaplan, İ. (1998). *Türklerde Doğa ve İnsan*. İstanbul: Remzi Kitabevi.
4. Tanpınar, A. H. (2010). *Beş Şehir*. İstanbul: Dergah Yayınları.
5. Duran, A. (2014). *Türk Dilinde Bitki Adları ve Kullanım Alanları*. Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları, 223-229.